

ZAMONAVIY QUOLLI MOJAROLARDA HARBIY AVTOMOBIL TEXNIKALARINI JANGOVAR QO'LLASHNING ILG'OR TAJRIBALARI

Kuchkarov Bahodir Tashmurodovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada yengil zirhli avtomobillar va jangovar mashinalarning jangovar va maxsus vazifalarni bajarishdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, hozirgi zomonda dunyoda bo'lib o'tayotgan qurolli to'qnashuvlarda noqonuniy qurollangan guruhlarining asosiy ta'minoti hisoblangan maxsus avtomobil texnikalari bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish imkoniyatlari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *zirhli avtomobillar, ziddiyat, qurolli majarolar, harbiy texnika, xavfsizlik, xorijiy analoglar, ekspluatatsiya, raketa, lokal urushlar, razvedka, qo'poruvchilik operatsiyalari, pistirma.*

ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ БОЕВОГО ПРИМЕНЕНИЯ ВОЕННОЙ ТЕХНИКИ В СОВРЕМЕННЫХ ВООРУЖЕННЫХ КОНФЛИКТАХ

Аннотация. *в данной статье рассматривается значение легкобронированной техники и автомобилей в боевых и специальных задачах. Кроме того, была дана информация об обеспечении специальными транспортными средствами, которые сегодня считаются основным транспортными средствами незаконных вооруженных формирований в вооруженных конфликтах в мире, и возможностях их использования.*

Ключевые слова: *бронетехника, конфликт, вооруженные конфликты, военная техника, безопасность, зарубежные аналоги, эксплуатация, ракета, локальные войны, разведка, диверсионные операции, засада.*

BEST PRACTICES IN COMBAT USE OF MILITARY EQUIPMENT IN MODERN ARMED CONFLICTS

Annotation: *this article examines the importance of light armored vehicles and automobiles in combat and special missions. In addition, information was provided on the provision of special vehicles, which are today considered the main supply of illegal armed groups in armed conflicts around the world, and the possibilities of their use.*

Key words: *armored vehicles, conflict, armed conflicts, military equipment, security, foreign analogues, operation, missile, local wars, reconnaissance, sabotage operations, ambush.*

Bugungi kunda deyarli dunyodagi barcha kuchli armiyalarni zirhli texnikasi sonini asosiy qismini yengil zirhlangan jangovar mashinalar tashkil qiladi, bular asosan piyodalar jangovar mashinalari va bronetransportyorlardir.

Yengil zirhlangan jangovar mashinalar shaxsiy tarkibni transportirovka qilish va jang mobaynida dushmanga mashinalarga o'rnatilgan qurol-yarog'dan o'q yog'dirib ko'maklashish uchun xizmat qiladi.

Zamonaviy urush va qurolli mojarolarni olib borishni shakl va usullarini o'zgarishi, ya'ni terroristik hujumlar, qo'zg'olonchilar harakatlari, qo'shinlarni "yopiq xududlarda" ya'ni aholi yashash joylarda, tog'larda, o'rmon va chakalakzorlarda kurashishga majbur bo'lishi, harbiy bo'linmalarni patrullik xizmatini olib borishida, kolonnalarni qo'riqlab borish va blok postlar tashkil qilib, xizmatni o'sha yerda olib borishga jalb qilinishi va shu jarayonda shaxsiy tarkibni tashkillashtirilgan pistirmadan, dushman qo'llayotgan tankka qarshi vositalari, yengil o'q otish qurollari ta'siridan saqlab qolish maqsadida takomillashtirilgan yuqori o'tuvchanlikka ega zirhli avtomobillardan foydalanilinishga majbur qilmoqda.

Lokal urushlar va qurolli mojarolarda zirhli jangovar avtomobillardan tashqari umumiy foydalanishda bo'lgan avtomobillardan ham keng ravishda foydalanilmoqda.

Urush va qurolli mojarolarda umumiy foydalanishda bo'lgan avtomobillarni qo'llash yangilik emasligi hech kimga sir emas. Ko'p chet el davlatlari uzoq yillardan buyon umumiy foydalanishda bo'lgan avtomobillardan unumli foydalanib kelmoqda, ayniqsa kuzovi pikap tipida bo'lgan avtomobillardan keng foydalanilmoqda. Urush davrida mablag'larni tejash maqsadida, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini kam xarajatligi va mashinalarni narxi harbiy texnikalarga nisbatan bir munchaga arzonligi ushbu avtomobillardan foydalanishga da'vat etmoqda.

Shu bilan bir qatorda foydalanilayotgan avtomobillarni ustunliklarini ham qayd etib o'tishimiz lozim. Bu mashinalarni yuk ko'tarish qobiliyati etarlicha (1 tonna atrofida), dvigatelni yuqori quvvatga egaligi, yuqori o'tuvchanlikka va yurish tezligiga egaligi, ko'p odam tashish imkoniyatiga egaligi, yaqin sharqda ushbu tipdagi mashinalarni sonini ko'pligidir. Jihozlangan yuqori o'tuvchanlikka ega pikap o'z xususiyatlari bilan kichik yoki o'rta sinfdagi harbiy zirhli avtomobillarga yaqinlashib qoladi (qurol yaroqni o'rnatilishi, 15 tagacha jangchilarni tashishi, jangchilarni juda ham tez chiqib tushish imkoniga egaligi). Jihozlangan pikaplardan foydalanishni effektivligi bo'lib o'tgan ko'p qurolli mojaralar davrida terroristik guruhlar tomonidan va ayrim davlatlarni doimiy qurolli kuchlari tomonidan ham namoyish qilingan. Bunday avtomobillardan razvedka va qo'poruvchilik operatsiyalari o'tkazish jarayonida, pistirmalar tashkil qilishda foydalanish nihoyatda qulay, terroristlar dushmanlarga qarab o'q yog'dirib, tezlik bilan pozitsiyalarini almashtirish imkoniga ega bo'lishadi.

Jangovar foydalanishdan tashqari bu mashinalarda mol-mulk, oziq-ovqat, shaxsiy tarkib va yaradorlarni tashish amalga oshiriladi. Bunday mashinalarning asosiy kamchiligi yaxshi himoyalanmaganligidir. Himoya xususiyatlarini oshirish maqsadida old bamperlar tomoniga va kuzovda o'q otuvchi uchun qo'lbola po'lat listlardan himoya ekranlari o'rnatiladi. Umumiy foydalanishda bo'lgan avtomobillarga har-xil qurol-yarog' o'rnatilmoqda, ularni ichida eng

ommalashgani 14,5 – mm katta kalibrli pulimiyotlardir, unga sabab ushbu pulimiyotlar yengil zirhlangan nishonlarni, otish vositalarini va yengil pana joylarda yashiringan dushman shaxsiy tarkibini yo'q qilish xususiyatiga egaligidir. Asosan ushbu pulemyotlar qurolli kuchlar tizimidagi shikastlangan zirhli texnikadan yechib olinib, nishonga olish moslamasi o'rnatilib avtomobillarga joylashtirilmoqda.

Kuzovida 12,7 – mm DShK yoki shunga o'xshash (analogi) Xitoyda chiqarilgan pulemyot o'rnatilgan mashinalar ham keng tarqalgan. Yuqorida keltirilgan o'q otish vositalaridan asosan yer ustidagi nishonlarga qarata o'q uzishda unumli fodalanib kelinmoqda, undan tashqari katta burchakli balandlik ostida o'q otish imkoniyatiga egaligi ushbu jihozlangan umumiy foydalanishda bo'lgan pikaplarni tog' hududlari va shahar sharoitidagi janglarda tengi yo'q darajaga olib chiqadi. Undan tashqari avtomobillarga 23 mm ZPU-23-2, ZPU-23-4 zenit pulemyot qurilmasi, stanokli granatamyotlar, orqaga tepmaydigan to'plar, tanklarga qarshi raketa komplekslari o'rnatilmoqda. Jangarilarda Xitoyda ishlab chiqarilgan 107 mm baravariga o't otish reaktiv tizimi va boshqarilmaydigan aviatsiya reaktiv snaryadlar o'rnatilgan mashinalar mavjudligini alohida belgilab o'tish joiz.

Yuqori o'tuvchanlikka ega umumiy foydalanishda bo'lgan pikap tipdagi avtomobillarni barcha yirik avtomobil ishlab chiqaruvchilar, ya'ni "Mitsubisi", "Mazda", "Nissan", "Isuzu", "Folksvagen" kabi kompaniyalar ishlab chiqaradi, lekin terrorchilar orasida ham doimiy qurolli kuchlar orasida ham "Toyota" kompaniyasining modellari afzal ko'riladi. Harbiy harakatlarda ishtirok etgan mutaxassislarni ta'kidlashicha, faqatgina "Toyota" kompaniyasida ishlab chiqarilgan mashinalargina urushni ekstremal sharoitlariga bardosh bera oladi. Havoni issiq xarorati, atrof muhitni jiddiy ifloslanganligi (havoda qum va chang zarralarini mavjudligi) va avtomobilni nominal yuk ko'tarish imkoniyatidan anchagina og'ir yuklarni tashilishiga qaramay ushbu avtomobillar ishlayveradi. "Toyota" kompaniyasida ishlab chiqarilgan avtomobillarni ichida bo'lsa "Xayluks" modeli jangarilar ichida katta shuhrat qozongan. "Toyota xaylyuks" avtomobillari 500 ming kilometr yurganidan keyin ham texnik holati qoniqarli holda bo'lishi isbotlangan.

Afg'oniston xavfsizligiga ko'maklashish xalqaro kuchlar tarkibidagi Kanada qurolli kuchlar kontengenti "Toyota xaylyuks" avtomobillari bilan ta'minlangan bo'lib, jangovar harakatlar mobaynida ijobiy baholangan. Yuqori o'tuvchanlikka ega bo'lgan pikap avtomobillarini jangovar harakatlarda qo'llanishi yorqin namunalaridan biri 1978 – 1987 yillarda Chad Liviya mojarasidir. Avtomobillardan ommaviy foydalanish natijasida ushbu urush "Toyottalar jangi" deb tarixga kiritilgan. Chad qurolli kuchlari aviatsiya va artilleriyaga ega bo'lmaganligiga qaramay, Fransiyadan kuzovlariga katta kalibrli pulimiyotlar va "Milan" rusumidagi - tanka qarshi raketa komplekslar o'rnatilgan 400 dona "Toyota lend kruzer" olganligi natijasida Liviya armiyasiga sezilarli talofat yetkaza olgan. Liviya qo'shinlari Chad qurolli kuchlaridan son va qurollanish jihatdan katta ustunlikka ega bo'lgan, lekin Chad Respublikasi jihozlangan "Toyota" larni olganidan so'ng liviyaliklarga har tomonlama zarbalar berib liviya qo'shinlarini tor-mor qilishga muvofiq bo'lishgan. Natijada ko'pgina Shimoliy Afrika va boshqa davlatlar

qurolli kuchlarida yuk tashish kuzoviga ega bo'lgan yuqori o'tuvchan avtomobillar paydo bo'lgan.

O'tgan asrning 90-yillarida Somalida yuzaga kelgan fuqorolar urishida xususiy kompaniyalar o'zlarini himoya qilish uchun yollanma askarlardan foydalanishga majbur bo'lishgan va ularni qurollar bilan jihozlangan umumiy foydalanishda bo'lgan pikap tipidagi avtomobillar bilan ta'minlashgan. Ushbu qurolli mojarolar yana bir bor, qurol o'rnatilgan pikap avtomobillar qimmat harbiy avtomobillar yoki yengil zirhlangan texnikaga munosib raqobat tashkil qilishini isbot qilgan. Yaqin sharqda bo'lib o'tayotgan qurolli to'qnashuvlarni tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, jangarilarda mavjud bo'lgan yuqori o'tuvchan pikap avtomobillar ichida eski avtomobillar nihoyatda kam, avtomobillarni asosiy qismi yangi avtomobillardan tashkil topadi. Amerika qo'shma shtatlarining antiterroristik departamentini habar berishicha terroristlarda mavjud bo'lgan yangi mashinalar soni bir necha yuztani tashkil qiladi, ularni ta'kidlashicha 2014 yilda ISHID jangarilari Iroq shimolida ushbu avtomobillarni o'lja qilib bosib olgan.

Biroq ISHID tarkibidagi avtomobillar soni birmunchaga ko'pligi hech kimga sir emas, ayrim ommaviy axborot agentliklari ma'lumotlariga qaraganda "Toyota" kompaniyasi Rossiya va Suriya davlatlariga ISHID uchun kim avtomobillar sotib olayotganligi haqida rasmiy axborot berganligi qayd qilinmoqda. Shu hujjatga muvofiq bugungi kunga qadar Saudiya Arabistoni - 22 500 ta, Qatar – 32 000 ta, Birlashgan Arab Amirligi – 11 650 ta "Toyota" avtomobillarini sotib olib ISHIDga yetkazib berishgan. Shunday qilib urush va qurolli mojarolarda umumiy foydalanishda bo'lgan yuqori o'tuvchan avtomobillarni qo'llash tajribasi ko'rsatadiki bunda yavtomobillarga ega noqonuniy bo'linmalar ko'pincha o'z tarkibida zirhli texnikaga ega bo'lgan bo'linmalarga nisbatan ustundir.

Bundan xulosa qilish mumkinki kelajakdagi lokal urushlar va qurolli majarolarda, davlatlar qurolli kuchlari ko'p maqsadli, yuqori o'tuvchanlikka ega bo'lgan zirhli mashinalardan faol foydalanishadi, o'z o'rnida terroristlar ham yuqori o'tuvchanlikka ega pikap avtomobillardan shiddat bilan foydalanishini oldindan aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Internet sayt: <http://www.techno.edu.ru/> (27.11.2024)
- 2 Sayt: https://vpk.name/news/423729_uzbekistan_nachal_proizvodstvo_legkih_broneavtomobilei_tarlon.html Statya perepechatana iz SAMTO Uzbekistan nachal proizvodstvo legkih broneavtomobiley Tarlon v izdanii VPK ot 27.08.2020.
3. Г.В. Крамаренко. «Техническая эксплуатация автомобилей». Москва. Издательство транспорт 1972. 436 с.
4. Qodirov A.R., Rayimov Sh.K. Magistrlik dissertasiyasini tayyorlash va rasmiylashtirish qoidalari. // Metodik qo'llanma. – T.: O'R QK Akademiyasi HTM PK MOM, 2019. – 94 b.